

Raqamli O‘zbekiston sharoitida davlat xaridlarini yanada rivojlantirish istiqbollari

Samarbek Sanjar o‘g‘li Hayitmurodov
“Uzbekistan Airports” AJ

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli O‘zbekiston sharoitida davlat xaridlarining hozirgi holati, mavjud muammolar hamda ularni yanada rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari tahlil qilindi. “2025-2027-yillarda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va rivojlantirish” strategiyasida belgilangan ustuvor maqsadlar doirasida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan xorij tajribasi o‘rganildi. Xususan, davlat xaridlari sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish borasida amaliy yechim va tavsiyalar berildi.

Kalit so‘zlar: raqamli davlat xaridi, “yashil” davlat xaridlari, raqamli platforma, o‘rtacha narx, mustaqil monitoring platformasi (IMP)

Prospects for further development of public procurement in the context of digital Uzbekistan

Samarbek Sanjar oglu Hayitmurodov
“Uzbekistan Airports” JSC

Abstract: This article analyzes the current state of public procurement in the context of digital Uzbekistan, existing challenges, and prospects for further development and improvement. Foreign experience that can be applied within the priority goals outlined in the “Strategy for the Improvement and Development of the Public Procurement System for 2025-2027” is examined. In particular, practical solutions and recommendations for expanding the use of digital technologies in the field of public procurement are provided.

Keywords: digital public procurement, “green” public procurement, digital platform, average price, independent monitoring platform (IMP)

KIRISH

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jahon iqtisodiyotining barcha sohalariga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, davlat boshqaruvida raqamli transformatsiya jarayonlari samaradorlikni oshirish, shaffoflikni ta’minlash hamda xarajatlarni optimallashtirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekistonda ham davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, jumladan davlat xaridlari tizimini

raqamlashtirish orqali yanada samarali va adolatli bo‘lishi yo‘lida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Davlat xaridlari mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning samarali tashkil etilishi davlat resurslaridan oqilona foydalanish va korrupsiyaga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli platformalar va axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi davlat xaridlari jarayonlarining shaffofligi, tezligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Davlat xaridlari bo‘yicha qonun qabul qilingani, tanlov va tender raqamlashib, sog‘lom raqobat bo‘lgani uchun yil sayin tobora xarid sohasi ochiqlashib, xalqchil bo‘lib bormoqda. 2024-yilda qariyb 14 trillion so‘m budget mablag‘ini tejab qolishga erishildi.¹

Biroq, bu jarayonlarni raqamlashtirish orqali mablag‘lar sarfini yanada ko‘proq tejab qolish imkoniyati mavjud. Ammo, raqamlashtirish jarayonida texnologik infratuzilmaning yetishmasligi va xodimlarning malakasining pastligi kabi kamchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu muammolar, asosan, resurslarning yetarli darajada taqsimlanmasligi va raqamli ko‘nikmalarni oshirish bo‘yicha tizimli seminarlarning yo‘qligi sababli kelib chiqadi.

Jahon amaliyotida elektron davlat xaridlari tizimlaridan raqamli davlat xaridlari tizimlariga o‘tish jarayoni tobora tezlashib borayotganini kuzatish mumkin. Bu jarayonning asosiy sabablari sifatida xaridlar sohasida narxlar shakllanishini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatining mavjudligi hamda o‘rtacha narx mexanizmi orqali turli hududlardagi narxlarni solishtirish imkoniyatining ta’minlanishi ko‘rsatish mumkin. Ushbu imkoniyatlardan xarid jarayonlarining shaffofligi va samaradorligini oshirish, shuningdek, narxlar bozoridagi noaniqliklarni kamaytirish orqali davlat xaridlarining iqtisodiy samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.² Davlat xaridlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish YAIMning o‘sishiga ijobjiy ta’sir qiladi, chunki bu iqtisodiy samaradorlikni oshirib, resurslarni tejaydi, bozor raqobatini kuchaytiradi va korrupsiya darajasini kamaytiradi. Natijada, iqtisodiyotning barqaror va sifatli o‘sishi ta’minlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat xaridlari elektron tizimida turli xil elektron savdo turlari mavjud va bu savdolar ham xar xil elektron savdo platformalarida amalga oshirilgan. Bu holatni 2022-yil kesimida davlat xaridlari elektron tizimining operatorlari kesimida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, operatorlar soni to’rttaligini va ular ichida shartnomalar soni va ularning qiymati bo‘yicha “O‘zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjasi” AJ egallaganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 5-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig‘ilishidagi nutqidan. <https://president.uz/oz/lists/view/7924>

² Schwab, K. (2016). The Fourth Industrial Revolution. Crown Business.


Quyidagi 1-rasmda turli elektron tizim operatorlarining shartnomalar soni va ularning qiymatlari ko'rsatilgan. Jadvalga ko'ra quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

- "O'zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjasi" AJ: Ushbu tashkilot 1 335 759 ta shartnomani tuzgan va umumiy shartnomalar qiymatining 83 foizini tashkil etadi. Shuningdek, shartnomalar soni bo'yicha 89 foiz ulushga ega bo'lib, eng katta ulushga ega tashkilot hisoblanadi.

- "Xt-xarid texnologiyalari" MCHJ QK: Ushbu tashkilot 108 016 ta shartnoma tuzgan, bu jami sonning 5 foizini tashkil etadi. Shartnomalar qiymati bo'yicha esa 5 foiz ulushga ega.

- "Elektron kooperatsiya portal" DUK: Bu tashkilot 50 100 ta shartnoma bilan jami sonning 6 foizini tashkil etadi. Shartnomalar qiymati bo'yicha ulushi 6 foizni tashkil qiladi, lekin soni bo'yicha ulushi faqat 3 foiz ga teng.

- "Qurilish sohasida axborot kommunikatsiya-texnologiyalarni rivojlantirish markazi" DM: Bu tashkilot jami 11 627 ta shartnoma bilan 6 foiz ulushga ega, lekin shartnoma qiymati bo'yicha 1 foizni tashkil etadi.



1-rasm. Davlat buyurtmachilari tomonidan amalga oshirilgan davlat xaridlari elektron tizimining operatorlari kesimida³

³ O'zbekiston Respublikasi tovar-xom ashyo birjasi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

Davlat xaridlari sohasida raqobatni kuchaytirish va shaffoflikni ta'minlash uchun samarali axborot-kommunikatsiya tizimlarining mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Ko'plab davlatlarda xaridlarni boshqaruvchi turli platformalar faoliyat yuritadi, biroq ularning bir-biri bilan uzviy bog'lanmaganligi raqobatni to'liq ta'minlashga xalaqit beradi. Shu munosabat bilan, davlat xaridlari bo'yicha yagona integratsiyalashgan portal yaratish tajribasi katta e'tibor qozonmoqda. AQShning SAM.gov portali ushbu jarayonda ilg'or namunadir.⁴

SAM.gov portali integratsiya va raqobatni ta'minlash borasida bir qator muhim afzalliklarga ega. Avvalo, bu portal markazlashtirilgan ma'lumotlar bazasiga ega bo'lib, turli davlat tashkilotlari va hududiy portallarda mavjud xaridlarni yagona platformada jamlaydi. Bu esa xaridorlar va yetkazib beruvchilar uchun kengroq imkoniyatlar yaratadi. Xarid jarayonlarining barcha bosqichlari onlayn tarzda ochiq kuzatiladi, bu orqali shaffoflik ta'minlanadi va korrupsiya hamda nohaqlik holatlarining oldi olinadi. Shuningdek, barcha takliflar yagona portal orqali ochiq e'lon qilinishi sog'lom raqobat muhitini shakllantiradi, monopoliyaga qarshi kurashni kuchaytiradi va bozorga yangi o'yinchilarning kirib kelishini rag'batlantiradi. Bundan tashqari, barcha xarid jarayonlari yagona tizimda boshqarilishi ma'muriy xarajatlarni kamaytiradi, operatsion jarayonlarni soddalashtiradi va vaqt ni tejaydi. Shu tarzda, SAM.gov portali davlat xaridlari tizimini yanada samarali va raqobatbardosh qilishga xizmat qiladi.


Quyidagi 2-rasmida davlat xaridlari tizimlaridagi mablag'larni tejalishi, ya'ni boshlang'ich baholarga nisbatan tejab qolningan mablag'lar ko'rsatilgan. Bu ko'rsatkichlar elektron do'kon va auksion tizimlarida qanday samaradorlikni ko'rsatadi va yillar davomida qanday o'zgarishlarni kuzatish mumkinligini aks ettiradi:

Yillar davomida elektron do'kon va auksion tizimlarida mablag'larni tejalishi ko'rsatkichi o'zgarib turibdi. Elektron do'konda tejash ko'rsatkichi 2020-yildan 2023-yilgacha oshib borgan, bu tizimning samaradorligini ko'rsatadi. Auksion tizimida esa mablag'larni tejalishi ko'rsatkichi bir oz pasaygan bo'lsa-da, umumiy ravishda bu tizimda ham o'zgarishlar kuzatilgan.

Gruziyada davlat xaridlari tizimiga "Mustaqil monitoring platformasi (IMP)"ni joriy etish korrupsiyaga qarshi kurash, shaffoflikni ta'minlash va fuqarolik jamiyatni ishtirokini kuchaytirish maqsadida amalga oshirilgan muhim islohotlardan biridir.⁵ Mazkur platforma Transparency International Georgia va boshqa nodavlat tashkilotlar tomonidan yaratilgan bo'lib, u davlat xaridlarining barcha bosqichlarini - e'lon, tender jarayoni, g'olibni aniqlash va shartnoma bajarilishini - ochiq monitoring qilish imkonini beradi.

⁴ <https://sam.gov/opportunities>

⁵ <https://www.tendermonitor.ge/en/flags>



2-rasm. Byudjet buyurtmachilar tomonidan boshlang'ich bahoga nisbatan mablag'larni tejalishi (foizda)⁶

Gruziya tajribasi shuni ko'rsatadiki, IMP tizimini joriy etish orqali davlat xaridlaridagi ko'plab muammolar samarali hal etilmoqda. Avvalo, shaffoflik sezilarli darajada oshadi, chunki barcha xaridlar bo'yicha ma'lumotlar ochiq manbada, real vaqt rejimida mavjud bo'ladi. Bu esa fuqarolar, jurnalistlar, fuqarolik jamiyatni va tadbirkorlik sub'yektlari uchun kuzatuv va tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Ikkinchidan, korrupsiya xavfi kamayadi, chunki IMP platformasi shubhali bitimlar yoki raqobatsiz tanlovlarni aniqlash va ular bo'yicha jamoatchilik fikrini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu davlat xaridlarida javobgarlik va mas'uliyatni oshiradi.

Uchinchidan, samaradorlik kuchayadi, ya'ni xaridlar bo'yicha narxlar, takliflar soni, g'olib tashkilotlarning takliflari kabi omillarni tizimli tahlil qilish orqali kelajakdagi xarid siyosatini yanada takomillashtirish imkonini tug'iladi. Mustaqil monitoring tizimi raqobat darajasini ham o'lchay oladi, bu esa davlat xaridlarida sog'lom iqtisodiy muhit shakllanishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston tajribasida ham IMP tizimini joriy etish dolzarb ahamiyatga ega. Bu davlat xaridlarining faqat hukumat va ishtirokchilar nazoratida bo'lib qolmasdan, jamoatchilik va mustaqil institutlar tomonidan ham baholanishiga zamin yaratadi. Natijada, davlat xaridlari tizimi ochiq, raqobatbardosh va ishonchli mexanizmga aylanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat xaridlarida korrupsiyaning oldini olish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Shu maqsadda Ekspert komissiyasi tuziladi. Ilg'or tajriba asosida davlat xaridlarida tovarlarning o'rtacha bozor narxlari ko'rinish turadigan elektron platforma yaratiladi. Bunda, davlat xaridlarida sotib olinadigan tovar va xizmatlar narxi o'rtacha bozor narxidan ko'pi bilan 20 foizdan oshmasligi shart. Ushbu talabni buzganlik uchun qonun bilan javobgarlik va jarimalar joriy qilinadi.⁷

⁶ O'zbekiston Respublikasi tovar-xom ashyo birjasi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 5-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig'ilishidagi nutqidan. <https://president.uz/oz/lists/view/7924>

Zamonaviy davlat xaridlari tizimi shaffoflik, raqobatbardoshlik va samaradorlik tamoyillariga asoslangan bo‘lishi zarur. Gruziyada amaliyatga joriy etilgan Mustaqil Monitoring Platformasi (IMP) va AQShdagi markazlashgan SAM.gov portalı bu borada ikki xil, biroq bir-birini to‘ldiruvchi yondashuvni namoyon etadi. IMP orqali jamoatchilik va fuqarolik jamiyati vakillari xarid jarayonlarini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu davlat xaridlarda ochiqlik va hisobdorlikni oshiradi. SAM.gov esa barcha xaridlarni yagona, integratsiyalashgan platformada jamlab, davlat xaridlarining markazlashtirilgan boshqaruvi, raqobat muhitining kengayishi va resurslarning tejalishiga xizmat qiladi.

Mazkur ikki tajribaning umumiy natijasi shundaki, davlat xaridlari tizimida raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan yagona va ochiq infratuzilmalar korrupsiya xavfini kamaytiradi, raqobatni rag‘batlantiradi hamda fuqarolarning davlat xaridlari bo‘lgan ishonchini oshiradi. O‘zbekiston sharoitida ushbu ilg‘or tajribalarni integratsiyalashgan tarzda qo‘llash, ya’ni SAM.gov kabi yagona portalni yaratish va IMP singari mustaqil monitoring mexanizmlarini parallel faoliyatga jalg‘ib etish davlat xaridlari tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684 son qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.04.2021-y., 03/21/684/0367-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, PQ-3953-son 27.09.2018 y. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son
3. “Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirishda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish”. Monografiya / Turabov S.A. - T.:”Taxririyy nashriyot”, 2023.-184 b.
4. Davlat xaridlari. Darslik. “Lesson Press” MCHJ nashriyoti - T.: 2024. 158 b.
5. Khi V.Thai. “International Handbook of Public Procurement”. Auerbach Publications, Taylor & Francis Group 6000 Broken Sound Parkway NW, Suite 300 Boca Raton, FL 33487-2742. 836 p.
6. Nuritdinova Z.F., O‘roqov U.Y. Davlat xaridlarini amalga oshirishda Janubiy Koreya tajribasi va yashil davlat xaridlarining tutgan o‘rni. Multidisciplinary Scientific Journal, 2023.
7. Гладков В.С. Государственный заказ в сфере государственного управления экономикой: Дисс. канд. юрид. наук. Ростов-на-Дону, 2008.
8. Загорский И. О., Ланюгова А.Э., Якунин Д.В. Система закупок 2020: учеб. пособие. Тихоокеанский государственный университет- Хабаровск: Изд-во Тихоокеан. гос. ун-та, 2020. - 349 с.

9. Мартыненко Г.И. Размещение заказов на поставки товаров, выполнение работ, оказание услуг для государственных и муниципальных нужд, антимонопольный контроль // Право и экономика. 2006. № 10.
10. Malikov T., Olimjonov O. Moliya. Darslik. - T.: "Iqtisod-moliya", 2019. - 920 b.
11. Набиев Р.А., Арықбаев Р.К. Повышение эффективности бюджетных расходов системы государственных заказов и закупок // Бухгалтерский учет в бюджетных и некоммерческих организациях. 2008. № 15.